

DANTE ALIGHIERE HAYOTI VA ILOHIY KOMEDIA ASARINING DINIY VA FALSAFIY MAZMUNI

Ilichova Barchinoy

Toshkent kimyo xalqaro universiteti [Samarqand filiali]

English Education 323-guruh

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar

ANNOTATSIYA; Dante Alighiere [1265-1321] – o`rta asrlar Italiasining buyuk shoiralaridan biri va “Ilohiy komediyasi ” asarining muallifi hisoblanadi . U Florensiyada tug`ilgan va yoshlidan adabiyotga , falsafaga katta qiziqish bildirgan . Shuningdek uning dunyoga mashxur “ Ilohiy komedia ” asari dunyo adabiyotida o`ziga hos o`rin tutadi va insoniyatning ma`naviy va diniy izlanishlari haqida chuqur tasavvurlarni beradi . Ushbu maqolada Dante hayoti , va asari asasan o`z davridagi siyosiy va diniy holatni aks ettiradi .

Kalit so`zlar; Dante Alighiere , Ilohiy kamediya , Inferno , Purgatorio , Paradiso, Florensiya , Vita Nuova , Beatrisa Portinari .

Dante Alighiere 1265-yilning 29 – mayda Italiya , Florensiyada guelflar partiyasiga mansub bo`lgan zodagonlar oilasida dunyoga kegan. U yoshligidan adabiyotga qiziqib o`qish va yozishga intilgan .VITA NUOVA [YANGI HAYOT] nomli asarida Dante Beatrisa Portinari ismli ayolga bo`lgan muhabbatini yoritadi .Dante hayoti davomida ko`plab shaxsiy muammolarni boshdan kechirgan Dante o`zining ilmiy va falsafiy bilimlarini ko`plab italiyalik va yevropalik mutafakkirlarning asarlari orqali rivojlantirgan . Shu jumladan , Aristotel , Sokrat , Avitsenna kabi olimlarning mashxur asarlarini o`rganishda faol bo`lgan .O`sha davrda , Florensiyada jiddiy siyosiy muzokaralar ketayotgan paytda xalq ikki tomonga ajralgan .Guelflar-papani qo`llagan , gibelinlar-imperatorni qo`llagan . Dante o`zining siyosiy faoliyatida Florensiyada shahar hukumatining turli lavozimlarida xizmat qilagan . Afsuzki , 1302 – yilda shahar ichidaki siyosiy ziddiyatlar kuchayib , guelflarning ichki mojarosi tufayli Dante o`z vatanidan surgun qilingan . Florensiya shaxridan surgun qilingan Dante , birinchi navbatda , Romagna va Toskanada , keyinchalik esa Rovennada yashaydi . Surgunlik paytida , Dante shaxsiy hayotidagi izlanishlarni ko`paytirdi va o`zining eng mashxur asari – ILOHIY KOMEDIYAni yaratishga kirishdi .Dante ushbu asarda diniy va axloqiy izlanishlarni tasvirlagan .

Ilohiy komediya – Dante Alighierning eng mashxur va eng yirik asari bo`lib , o`rta asrlar adabiyotining durdonasi sifatida tan olingan . Asar uch qismidan iborat bo`lib , **Inferno** [ do`zax] , **Purgatorio** [tozalash joyi] , **Paradiso** [Jannat] . Asarning

har bir qismida Dante o`zining ma`naviy salohiyatini amalga oshirib , turli axloqiy sinovlardan o`tdi va ilohiy haqiqatni izlashda davom etadi .

**Do`zax** - gunoxkorlar jazolanadigan joy , to`qqiz doiradan iborat

Arof – gunoxkorlar gunoxidan poklanadigan makon

Jannat – solih insonlar Makoni bo`lib , u to`qqiz osmondan iborat.

Do`zaxning tuzlishi va joylashishi

•**Kirish** – do`zaxning darvozasi . Umidsizlik va qo`rquv hukm suradi .

•**Yuqori qismlar** – yengil gunohlar uchun jazolar .Besh doiradan iborat

•**O`rta qismlar** -Og`irroq gunohlar uchun jazolar . Oltinchi va yettinchi doiralar

•**Quyi qismlar** -eng og`ir gunohlar uchun jazolar . Sakkizinchi va to`qqizinchi doiralar

Do`zaxdagi azoblar va gunohlarning aloqasi

•**Jismoniy azoblar** – Olovda kuyish , muzda qotish , ilonlar chaqishi kabi jismoniy azoblar

•**Metaforik jazolar** – gunohlarga mos keladigan ramziy jazolar , masalan ,yolg`onchilarni tili kesilishi .

•**Ruhiy azoblar** – abadiy pushaymonlik , umidsizlik va qo`rquv kabi ruhiy azoblar .

Do`zaxning “ do`zax ” deb nomlanishining sababi , asli lotin tili yani **infernus** so`Zidan kelib chiqqan . Bu nom pastgi , quyi degan ma`nolarni anglatadi .

Do`zaxda uchratgan shaxslar va ularning gunoxlari

•**Palo va Francheska** – shaxvat gunohi uchun jazolanayotgan oshiqlar . Bo`ron Ichida abadiy aylanishga maxkum

•**Uliss** -Aldov gunohi uchun jazolanayotgan qaxramon

•**Farinata degli Uberti** – bid`at gunohi uchun jazolangan siyosatchi

•**Brut va Kassiy** - Xoinlik gunoxi uchun jazolangan qotillar

Dante o`zining asarida ayol obrazini kam bo`lsaham ishlatgan bo`lsada , ularni do`zaxda o`z o`rniga ega deya tariflagan .U ayolning inson turmushidagi ahamiyatini ko`rsatishga harakat qilgan . Dantening bu asaridagi do`zaxning doiralari shunday tarflanadi

1. Doira – Fazilatli butfaraslar va cho`qintirilmagan chaqaloqlar
2. Doira – Jismoniy shaxvatparaslar
3. Doira - Ochko`zlar
4. Doira – Isrofgarchilar
5. Doira – g`azabli , mayus va dangasalar
6. Doira – bid`atchilar

7. Doira -qo`shnilariga nisbatan zo`ravonlik qiladiganlar
8. Doira – o`z joniga qasd qilganlar
9. Doira – tabiatga qarshi zo`ravonlik qilganlar
10. Doira – san`atga qarshi zo`ravon

Dante Ilohiy komediya asrida jannatni ,“ paradiso “ ni shunday tariflaydi

•**Unumli osmon [Empyrian]** – bu eng oliy osmon bo`lib bunda faqat ilohiy nur va haqiqat mavjud . Uning aytishicha , Hudoning o`zi bu joyda yashaydi .

•**Birinchi osmon [Moon]** – Ushbu osmonni yuksak diniy e`tiqodli va sadoqatli odamlar egallaydi

•**Ikkinchi osmon [Mercury]** – Bu osmon o`z vaqtida mashxur bo`lgan , aql va bilim bilan ajralib turadigan odamlar uchun ajratilgan

•**Uchinchi osmon [Venus]** – Bu osmon sevgi va muhabbatni anglatadi

•**To`rtinchi osmon [Sun]** – Bu osmon ilohiy aqldan yuksak bilim va hikmatga erishgan insonlar uchun ajratilgan

•**Beshinchi osmon [Mars]** – Bu osmonning ruhi jangovar fazilatga ega bo`lgan insonlarga ayniqsa halqni himoya qilgan ritsarlar

•**Oltinchi osmon [Jupiter]** – bu osmon ilmiy bilimlar va huquq bilan ajralib turgan insonlar uchun mo`ljallangan

•**Yettinchi osmon [Saturn]** – Bu osmonning ruhlari ayniqsa , ma`naviy va diniy izlanishlar bilan tanilgan shaxslar uchun

•**Sakkizinchi osmon [Fixed stars]** – Bu osmon o`zlarining juda oliy fazilatlariga ko`ra , mashhur bo`lgan diniy va falsafiy raxbarlar joylashgan

•**To`qqizinchi osmon [ Primum Mobile ]** – Bu osmonning ruhlari Allohning yuqori nuri bilan bevosita bog`liq bo`lgan ruhlar bo`lib , ular ilohiy yuksaklikka erishgan

Dante , har bir osmonni tasvirlab , o`zining ilohiy maqsadiga erishishni davom ettiradi , shu bilan birga jannatdagi eng oliy daraja Unumli osmonga erishadi . Dante Alighieri o`zining hayoti va ijodi bilan o`rta asrlar adabiyotining eng buyuk shaxslariga aylandi . Uning “ Ilohiy kamediya ” asari insonning manaviy izlanishlari , poklanish va haqiqatni izlash yo`lida amalga oshirilgan harakatlarni tasvirleydi . Dante 1321 – yilda Ravenna shaxrida vafot etdi . O`limidan oldin o`zining asarini yakullagan edi . Uning o`limidan keyin ilohiy kamediya va boshqa asarlari butun dunyoga o`girila boshlandi va katta etirofga sazovor bo`ldi .

FOYDALINGAN MANBALAR;

Dante Alighieri Ilohiy Komediya asaridan foydalanildi .